ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Tilovova Go‘zal Rustamovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Ta’lim jarayonida til birliklarini ongli egallash masalasi faqat grammatik me’yorlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. U, avvalo, ma’no nozikliklarini anglash, nutq vaziyatiga mos so‘z tanlash, atamalarni izchil qo‘llash va matnni to‘g‘ri talqin qilish kabi ko‘nikmalarning tizimli shakllanishini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan o‘quv izohli lug‘atlar o‘quvchi uchun tayanch vosita bo‘lib, so‘zning izohi, ko‘pma’noliligi, uslubiy bo‘yoqlari, qo‘llanish doirasi va lug‘at darsning chekka vositasi sifatida qolib ketishi, undan foydalanish ko‘proq «tekshirib ko‘rish» darajasida cheklanishi, natijada lug‘at bilan ishlashning o‘zi mustaqil o‘quv ko‘nikmasiga aylanmasligi kuzatiladi. Muammo shundaki, ko‘plab metodik yondashuvlarda o‘quv izohli lug‘atning didaktik funksiyalari sanab o‘tiladi, ammo lug‘atdan foydalanishni o‘quvchi faoliyatining mikroko‘nikmalariga ajratib, ularni bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmi yetarlicha asoslanmagan. O‘quv lug‘ati ta’lim oluvchining faqat muayyan fan bo‘yicha bilimini mustahkamlash uchun emas, uning shaxs sifatida kamol topishi, nutqi, dunyoqarashini ham shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Foydalanuvchining yoshi, ruhiy-fiziologik holati, bilim darajasi, dunyoqarashi, fiziologik taraqqiyoti, millati, e’tiqodi, madaniyati, milliy qadriyatlari, urf-odati, o‘zi yashayotgan mamlakat tabiati, iqlimi, hayvonot olami, umuman, uni qurshab turgan olam bilan chambarchas bog‘lanadi; ta’lim oluvchining ongida ilk yoshidan boshlab olamning lisoniy manzarasini chizishda yordam beradi[1]. Mavjud tadqiqotlarda lug‘atshunoslikning nazariy masalalari, izohli lug‘at tuzilishi va leksikografik tamoyillar keng yoritilgan bo‘lsa-da, ta’lim jarayonida aynan o‘quv izohli lug‘atlardan foydalanishning natijaviyligi, ya’ni o‘qib tushunish, yozma nutq, terminologik savodxonlik va metakognitiv nazoratga ta’siri izchil empirik va analitik asosda bir butun ko‘rinishda kamroq ko‘rsatiladi. Xalqaro tajribada ham lug‘atlardan foydalanish strategiyalari, o‘qish va yozish kompetensiyalariga bog‘lanishi muhokama qilingan, biroq bunday yondashuvlarni o‘zbek tilidagi o‘quv jarayoniga moslashtirishda kontseptual bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, raqamli resurslar kuchaygan sharoitda izohli lug‘atning «mavqeyi» pasaygandek ko‘rinsa-da, aynan izohli lug‘at o‘quvchini tayyor tarjima yoki qisqa sinonim bilan cheklab qo‘ymasdan, ma’no tuzilmasini tushunishga majbur qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv lug‘atlar dars mashg‘ulotlarida ta’lim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uning ta’limiy xarakteri lug‘at tarkibi,tuzilishi,lingvistik ma’lumotni taqdim etish shakli,maqolalarni berish usuli,hajmi va boshqa bir qator jihatlarida namoyon bo‘ladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi integrativ xarakterga ega bo‘lib, unda nazariy va amaliy yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi. Nazariy bosqichda o‘quv lug‘atchiligi va ta’lim lingvodidaktikasi doirasidagi konsepsiyalar umumlashtirildi, izohli lug‘atning makro va mikrostrukturasiga oid qarashlar tahlil qilinib, ularning o‘quv faoliyatiga ta’sir kanallari aniqlashtirildi. Tilni o‘qitishda leksik minimum, ma’no tarmoqlari va kontekstual o‘qish masalalari bo‘yicha ilmiy manbalar qiyosiy o‘rganildi.Bu bosqichda kontent tahlili usuli qo‘llanib, izohli lug‘at maqolalaridagi komponentlar (asosiy izoh, ko‘pma’nolilik, uslubiy belgi, misol, kollokatsion ko‘rsatkich) o‘quv topshiriqlariga qanday aylantirilishi mumkinligi modellashtirildi. Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv va amaliy sinov elementlari qo‘llandi. Kuzatuv obyektini umumta’lim va oliy ta’limning boshlang‘ich kurslarida matn bilan ishlash, yozma topshiriqlar va terminlar bilan ishlash jarayonlari tashkil etdi. Tanlangan sinov vaziyatlarida o‘quvchilarga bir xil matnlar asosida ikki xil ishlash strategiyasi taklif etildi: birinchisida izohli lug‘atga tayangan holda ma’no aniqlashtirish va kontekstga moslashtirish talab qilindi; ikkinchisida esa lug‘atsiz, umumiy izohlar va o‘qituvchi sharhi bilan cheklanish kuzatildi. Natijalar miqdoriy statistika sifatida emas, balki sifat tahlili asosida, xatolar tiplari va tuzatish traektoriyalari bo‘yicha tizimlashtirildi. Ushbu yon-

[1] Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филология фанлар доктори (ДSc) дис. автореф. – Самарқанд, 2020. 40-б.

[2] Abduraxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2022.

dashuv tanlanishining sababi shundaki, lug‘atdan foydalanishning samarasi ko‘pincha «to‘g‘ri javob soni»dan ko‘ra, o‘quvchining ma’no bilan ishlash strategiyasi, o‘zini nazorat qilish va ishonchli dalillash odati orqali namoyon bo‘ladi[1].

Qiyosiy tahlil usuli o‘quv izohli lug‘atni boshqa leksik resurslar, jumladan, ikki tilli lug‘at va tezkor raqamli izohlar bilan taqqoslashda qo‘llanildi. Bu taqqoslash lug‘at turi o‘quvchini qanday kognitiv operatsiyalarga undashi, ma’no tuzilmasini qay darajada «ochib berishi» va o‘quvchi mustaqilligini qanday qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlandi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv tanlandi, chunki lug‘atdan foydalanish natijasi bilim yig‘indisi emas, balki amaliy nutqiy vazifalarni bajarishda leksik vositalarni ongli tanlash va asoslash qobiliyati sifatida ko‘riladi. Shuningdek, metakognitiv o‘rganish konsepsiyasi nuqtai nazaridan o‘quvchining «bilmayman» holatini aniqlashi, savol qo‘yishi va lug‘at orqali javob topishi o‘quv jarayonining markaziy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot natijalari o‘quv izohli lug‘at bilan ishlashning samarasi, avvalo, o‘quvchining ma’no darajasida fikrlashini faollashtirishida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Birinchi natija sifatida lug‘at izohini talqin qilish ko‘nikmasi shakllanganda o‘quvchilar matndagi noma’lum yoki chalkash so‘zlarni «taxminiy» tushunishdan ko‘ra, izohdagi semantik belgilarni ajratib, ularni kontekstga bog‘lashga ko‘proq moyil bo‘ldi. Bunda izohli lug‘atning asosiy afzalligi shundaki, u so‘zning ma’nosini boshqa so‘zlar orqali ochadi va o‘quvchini semantik tahlilga majbur qiladi; natijada matnni talqin qilishda yuzaki assotsiatsiyalar kamayadi. Kuzatuv materiallarida ayniqsa mavhum tushunchalar, ta’lim va ilmiy uslubga xos birliklar bilan ishlashda lug‘atga tayanish matnning asosiy g‘oyasini aniqlashda xatolarni kamaytirgani qayd etildi.Ikkinchi natija ma’no farqlash va ko‘pma’noli so‘zlar bilan ishlashga taalluqlidir. Izohli lug‘at maqolasidagi ma’nolar ketma-ketligi, uslubiy belgilari va misollari asosida o‘quvchi bir so‘zning turli ma’nolarini «bir xil» deb qabul qilmasdan, kontekstda qaysi ma’no faollashayotganini izchil asoslay boshladi. Amaliy vaziyatlarda bu ko‘nikma o‘qib tushunishda noto‘g‘ri inferensiyalarni kamaytirdi: o‘quvchi so‘zning birinchi yodga kelgan ma’nosiga yopishib qolmay, lug‘atdagi ma’no variantlarini tekshiradi va mosini tanlaydi. Mazkur natija ayniqsa omonimiya va ko‘chma ma’no holatlarida yaqqol ko‘rindi, chunki bunday birliklarda kontekst bilan moslikni tekshirish talabi kuchayadi.Uchinchi natija sinonimik tanlov va uslubiy moslikni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘ldi. Yozma ishlarda o‘quvchilar ko‘pincha bir xil so‘zni takrorlash yoki vaziyatga mos kelmaydigan so‘z tanlash kabi muammolarga duch keladi. Izohli lug‘atdagi uslubiy belgilar va izohning o‘zi o‘quvchini ma’nodosh birliklarni farqlashga, ularning qo‘llanish doirasi va bo‘yoqlarini hisobga olishga undadi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, lug‘atga tayangan o‘quvchilar tahrir jarayonida «so‘z o‘rniga so‘z» almashtirishdan ko‘ra, gapning semantik tuzilmasini qayta ko‘rib chiqishga moyil bo‘ldi; bu esa yozma nutqning aniqligi va mantiqiy izchilligini kuchaytirdi.To‘rtinchi natija terminlar bilan ishlash va fanlararo savodxonlikka oid bo‘ldi. O‘quv izohli lug‘atlar ayrim hollarda umumiy leksika bilan birga o‘quv jarayonida faol ishlatiladigan atamalarning soddalashtirilgan izohini ham beradi yoki umumiy izoh orqali tushunishga yo‘l ochadi. Natijada o‘quvchilar atamani yodlab olishdan ko‘ra, uning mazmuniy chegaralarini ajratishga intildi, bu esa fan matnlarini o‘qishda «so‘z tanish, mazmun noaniq» holatini qisqartirdi. Empirik materialda atama noto‘g‘ri kengaytirilishi yoki toraytirilishi bilan bog‘liq xatolar lug‘atli ishlashda ko‘proq tahrir qilingani kuzatildi.Beshinchi natija metakognitiv nazorat va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Lug‘atdan muntazam foydalanish o‘quvchini o‘z bilimi chegarasini sezishga, savolni aniq qo‘yishga va javobni tekshirishga odatlantirdi. Bu jarayonda o‘quvchi «o‘qituvchi darhol aytib beradi» modelidan «manbadan topaman va asoslayman» modeliga yaqinlashdi. Natijada dars jarayonida savollar sifati o‘zgardi: so‘zning «tarjimasi»ni so‘rashdan ko‘ra, uning ma’nodagi farqi, qo‘llanishi yoki uslubiy mosligi haqida aniqlashtiruvchi savollar ko‘paydi. Ushbu natijalar lug‘at bilan ishlashni oddiy yordamchi vosita emas, balki o‘quv faoliyatining refleksiv komponenti sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar o‘quv izohli lug‘atning ta’limdagi qiymatini ikki darajada ochib beradi: birinchi daraja nazariy bo‘lib, u til birligining ma’nosini tizimli ravishda «strukturali bilim»ga aylantirishni ta’minlaydi; ikkinchi daraja amaliy bo‘lib, u o‘qish, yozish va tahrirda tez-tez uchraydigan xatolarni oldini olishning aniq mexanizmlarini beradi. Lug‘atshunoslikda izohli lug‘at ma’noni normativ va tizimli talqinda beruvchi manba sifatida ta’riflanadi; bu jihat o‘quvchi ongida so‘z haqidagi tasavvurni tasodifiy tajribadan ajratib, umumlashgan modelga ko‘taradi[2]. Bizning natijalar aynan shu nazariy pozitsiyani didaktik jarayonda tasdiqlaydi: o‘quvchi izohni o‘qib, semantik belgilarni ajratgan sari matnni talqin qilishda «barqaror tayanch» hosil qiladi.

Xalqaro metodik adabiyotlarda o‘quv lug‘atlarining o‘rni, ayniqsa, o‘rganuvchi til kompetensiyasini shakllantirishda, kollokatsiyalar va kontekstga mos

[1] Nation I. S. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge, Cambridge University Press, 2013. 24. p.

[2] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. 352 б.

qo‘llashni o‘rgatishda muhim ekani qayd etiladi. Mazkur pozitsiya bilan qiyoslaganda, bizning natijalar o‘zbek tili ta’limida ham lug‘atning faqat ma’no emas, balki qo‘llanish manbayi sifatida ishlashi kerakligini ko‘rsatadi. Ya’ni izohli lug‘at maqolasidagi misol, uslubiy belgi va ma’no farqlari o‘quvchining yozma nutqini tahrir qilishda tayanch mezonga aylanadi. Bunda muhim jihat shundaki, yozma nutqda sinonimik tanlov ko‘pincha mexanik almashtirish darajasida qoladi; izohli lug‘at esa so‘zning bo‘yoqlarini ochib, tanlovni mantiqiy asoslashga majbur qiladi. Shu tariqa, lug‘at bilan ishlash yozma nutq madaniyatini tuzatish emas, balki loyihalash jarayoniga yaqinlashtiradi. O‘zbek tilshunosligi va metodikasida lug‘atlarning ta’limiy vazifalari, til me’yorlarini mustahkamlashdagi roli ta’kidlangan bo‘lib, lug‘at bilan ishlash madaniyatini shakllantirish o‘quvchi savodxonligining ajralmas qismi sifatida qaraladi[1]. Bizning tadqiqot ushbu qarashni amaliy mexanizmlar darajasida rivojlantiradi: lug‘at bilan ishlashni mikroko‘nikmalarga ajratish, ularni topshiriq dizayniga singdirish va baholash mezonlari bilan bog‘lash lug‘atning darsdagi «ko‘rinmas» rolini «o‘lchanadigan» natijaga aylantiradi.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi bemisl taraqqiy etib, tilimizning leksikasini o‘rganish borasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar faxrlansa arzigulik. O‘zbek leksikologiyasi taraqqiyoti natijasi o‘laroq, milliy leksikografiyamizning yuksalishi, buning natijasida esa ko‘plab lug‘atlarning yaratilishi, mukammal izohli lug‘atlarning tartib berilishi bunga ishonchli dalil bo‘la oladi. O‘zbek milliy leksikografiyasi yangi taraqqiyot bosqichida so‘zlarni izohlashning o‘ziga xos usullariga ega bo‘ldi. Bu esa, o‘z o‘rnida, o‘zbek nazariy leksikologiyasining so‘zlar semantikasini tadqiq qilish bo‘yicha erishgan juda katta va keng qamrovli yutuqlari bilan belgilanadi. O‘zbek leksikografiyasining nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashuvida jahon leksikografiyasining ilg‘or nazariy xulosalari, metod va metodikasini ijodiy o‘zlashtirishi ham muhim rol o‘ynadi[2]. Tadqiqot ta’lim jarayonida o‘quv izohli lug‘atlardan foydalanish nazariy va amaliy jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Nazariy jihatdan izohli lug‘at so‘z ma’nosini tizimli va me’yoriy talqinda berib, o‘quvchi ongida semantik strukturalashuvni kuchaytiradi. Amaliy jihatdan esa lug‘at bilan ishlash o‘qib tushunishda ma’no farqlashni aniqlashtiradi, ko‘pma’nolilik va ko‘chma ma’nolarni kontekstga mos ajratishni barqarorlashtiradi, yozma nutqda sinonimik tanlov hamda uslubiy moslikni yaxshilaydi, terminlar bilan ishlashda mazmuniy chegaralarni aniqroq belgilashga yordam beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘quv izohli lug‘atlardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, matn tahlili va qiyosiy yondashuv uyg‘unlashtirildi. Natijalar lug‘at bilan ishlash leksik kompetensiya, o‘qib tushunish hamda yozma nutq aniqligini oshirishini ko‘rsatdi. Ishning yangiligi lug‘atga tayangan mikroko‘nikmalar modelini asoslashdir.Maqolada o‘quv izohli lug‘atlarning didaktik imkoniyatlari va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari yoritiladi. Metodologiya sifatida kompetensiyaviy yondashuv, terminologik tahlil va sinf ichidagi amaliy sinov qo‘llandi. Olingan natijalar ma’noni farqlash, sinonimik tanlov va kontekstga mos qo‘llash ko‘nikmalari barqarorlashishini tasdiqlaydi. Tadqiqot lug‘at ishlatishning baholash mezonlarini taklif etadi.Ushbu tadqiqot o‘quv izohli lug‘atlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning til birliklarini anglash, aniqlashtirish va mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan.

Resume. This article analyzes the theoretical foundations and practical effectiveness of using learner’s explanatory dictionaries in the educational process. The study integrates pedagogical observation, text analysis, and a comparative approach. The findings demonstrate that dictionary-based activities enhance lexical competence, improve reading comprehension, and increase the accuracy of written expression. The novelty of the research lies in substantiating a micro-skills model grounded in dictionary use.The article also explores the didactic potential of learner’s explanatory dictionaries and the mechanisms of their integration into classroom instruction.

Резюме. Данная статья анализирует теоретические основы и практическую эффективность использования учебных толковых словарей в образовательном процессе. В исследовании были интегрированы педагогическое наблюдение, анализ текста и сравнительный подход. Научная новизна работы заключается в обосновании модели микрокомпетенций, формируемых на основе словарной деятельности.В статье также рассматриваются дидактические возможности учебных толковых словарей и механизмы их интеграции в структуру урока.

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1996. 256 б.

[2] Abduraxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2022.